

## БО'ЛАЈАК О'QITUVCHILARNING KREATIV KOMPETENTLIGINING TUZILMASI, MAZMUNI VA O'ZIGA XOSLIGI TUSHUNCHALAR TIZIMI

**Tulishov G'olib Ravshanovich**

O'zbekiston milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

“Pedagogika va umumiy psixologiya” kafedrasи mustaqil tadqiqotchisi

### ***ANNOTATSIYA***

*Pedagogika va psixologiya sohasidagi lug'atlarda kreativlik insonning "nostandard vaziyatlardagi faoliyati, ijodiy imkoniyatlari (qobiliyatları)" sifatida ta'riflanadi. Ular tafakkurda, his-tuyg'ularda, muomalada, faoliyatning alohida turlarida yuzaga chiqishi, shaxsning yaxlit yoki alohida tomonlari, faoliyat mahsulotlari, ularni yaratish jarayoni sifatida xarakterlanishi haqida fikir mulohaza yuritamiz.*

**Kalit so'zlar:** Kompetentlilik, kreativ qobiliyatlar, kompetensiya va kompetentli yondashuv tushunchalari, kreativlik, kreativlik-ijodiylik, ijod, ijodiy faoliyat, ijodiy qibiliyatlar, kreativ salohiyat, kompetent yondashuv.

## **СИСТЕМА ПОНЯТИЙ СТРУКТУРЫ, СОДЕРЖАНИЯ И ХАРАКТЕРИСТИК ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

### ***АННОТАЦИЯ***

*В словарях педагогики и психологии творчество определяется как «деятельность человека в нестандартных ситуациях, творческие возможности (способности)». Мы думаем о том, как они проявляются в мышлении, эмоциях, поведении, в отдельных видах деятельности, как целостные или отдельные стороны личности, как продукты деятельности, как процесс их создания.*

**Ключевые слова:** Компетенция, творческие способности, понятия компетентности и компетентностного подхода, креативность, творчество-творчество, креативность, творческая деятельность, творческие способности, творческий потенциал, компетентный подход.

## THE SYSTEM OF CONCEPTS OF THE STRUCTURE, CONTENT AND CHARACTERISTICS OF CREATIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

### **ABSTRACT**

*In the dictionaries of pedagogy and psychology, creativity is defined as "activity of a person in non-standard situations, creative possibilities (abilities)". We think about how they appear in thinking, emotions, behavior, in particular types of activity, as whole or separate aspects of a person, as products of activity, as a process of their creation.*

**Key words:** Competence, creative abilities, concepts of competence and competent approach, creativity, creativity-creativity, creativity, creative activity, creative abilities, creative potential, competent approach.

### **KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)**

Ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor izchil davom ettiriladi. Bu borada ham tenglik ta'minlanishi, ... o'qishi va kasb-hunar egallashi jamiyat rivojida muhim ekani alohida ta'kidladi davlatimiz rahbari.<sup>1</sup> Shuning uchun tadqiqot ishining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda bo'lajak o'qituvchi kreativ kompetentligi fenomeni asosida yotgan qator nazariy tushunchalarini aniqlashtirish va tavsiflash muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

Kompetentlilik-bu “ishning ko‘zini bilish” deb atalgan o‘zlashtirilgan kompetensiyalar doirasida kasbiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyati, ya’ni mas’ul qarorlarni qabul qilish va mazkur vaziyat talablariga mos holda harakat qilishdir. Kreativ qobiliyatlar-bu individ uchun yangi faoliyat jarayonida (yangi masala, muammolarni yechish jarayonida) paydo bo‘ladigan, shaxsnинг yangi holatlari (tafakkurda, idrokda, hayotiy faoliyat tajribasida, motivasion sohada) va individual-psixologik xususiyatlari sintezidir. Bu yangi mahsulotning (g‘oyalar, predmetlar, badiiy asarlar va h.k.) sub’yektiv ob’yektiv paydo bo‘lishi yoki uning muvaffaqiyatli bajarilishiga olib keladi degan N.V.Kondratyev [1].

Muallif kreativlikni psixologik nuqtai nazardan turib tahlil qiladi, ya’ni unga prinsipial jihatdan yangi g‘oyalar, mahsulotlar yaratish imkoniyatini beradigan, tadqiqot faoliyatiga, o‘zini o‘zi rivojlantirishga nisbatan qiziqishlarning borligi, noan'anaviy qarorlar qabul qilishi bilan xarakterlanadigan, shaxsnинг hayotiy faoliyatidagi barcha tajribasiga ta’sir qiladigan, individ psixikasining sifatli o‘zgarishi,

<sup>1</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 22.12.2023. Ma’naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak. <https://president.uz/oz/lists/view/6941>

deya ta’rif beradi. Ijodiy qobiliyatlar taraqqiyoti jarayoni kreativlikning, ijodiy qobiliyatga nisbatan yuksak darajadagi motivatsiyaga ega bo‘lgan shaxs turg‘un xususiyatining paydo bo‘lishiga olib keladi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda kreativ qobiliyatlar har qanday individga xos bo‘lib, ular faoliyat jarayonida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Ijtimoiy, ta’limiy-tarbiyaviy muhit ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega.

Kreativ kompetentlik tushunchasining ta’rifi, uzliksiz ta’lim tizimida uning shakllanishi va rivojlanishi masalalari, shuningdek ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlarning konkret predmeti sifatida ko‘rib chiqilishiga ehtiyoj mavjud. Mazkur muammoning chuqur tahlili shuni ko‘rsatadiki, dissertasion ishlarda va ilmiy publikatsiyalarda mualliflar tuzilmaviy kompetentlardan, shuningdek o‘qituvchining kreativ kompetentligi taraqqiyotini baholash ko‘rsatkichlari va mezonlaridan tashkil topgan ijodiy kompetentlikning tavsifiga turli xil yondashganlar. Pedagogikada ham, boshqa ijtimoiy fanlarda ham o‘qituvchi kreativ kompetentligining mohiyati va strukturasi haqida ilm ahli tomonidan qabul qilingan yagona fikr mavjud emas. Bizning fikrimizcha, bunday tushunchalar quyidagilar: “kompetentlilik”, “kompetensiya”, “kompetentli yondashuv”, “kreativlik”, “ijod”, “ijodiy faoliyat”.

“Kompetentlilik”, “kompetensiya” va “kompetentli yondashuv” tushunchalari ilmiy va metodik adabiyotlarda; amaliy pedagogik, psixologiya va pedagogika va boshqa tadqiqotlarda, shuningdek olimlar, o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va mutaxassislarning kasbiy muomalasida o‘tgan asrning ikkinchi yarimlarida 1950 – 1990 y.y.) ishlatila boshlandi. A.A.Pecherkina, E.E.Simanyuk, Ye.L.Umnikova (2011) lar fikriga ko‘ra, “kompetentlilik” tushuncha sifatida XX asrning 50-yillarida ilmiy leksikonda paydo bo‘ldi.

Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “kreativlik-o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmui” (Azzam, 2009 y.) sanaladi. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”. Emebayl (1989 y.)ning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik “muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish” demakdir. Ko‘plab tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o‘rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kretivlik va intellekt darajasi bir-biriga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar (Kim, 2005 y.). “Kreativlik” tushunchasi o‘zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi va uning negizida noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e’tiborni qaratadilar (Myordok,

Ganim, 1993 y.; Shternberg, 1985 y.). Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yuye, 2000 y.).

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Garchi g‘arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo‘lsada, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.). J.Rovenning fikriga ko‘ra (2002), kompetentlilik o‘zida tor maxsus bilimlar, malakalar, tafakkur usullari va o‘z harakatlari uchun mas’uliyatni tuyushga tayyorgarlikni mujassamlashtirgan konkret predmet sohasidagi konkret harakatlarni amalga oshirish uchun zarur [2]. Biroq, Landsheyer V. (1988) ta’kidlaganidek, g‘arb adabiyotida bugungi kunda kasbiy kompetentlikka “chuqurlashtirilgan bilim”, “masalalarni adekvat yechish holati”, “faoliyatni aktual amalga oshirish qobiliyati” deya berilgan ta’riflar mavjud. G.K. Britell, R.M. Jueger, W.E. Blank va boshqalar mazkur tushunchaning mazmunini to‘liq konkretlashtirmaydilar ham [3].

R.Short (1997) “shaxs kompetentligi” tushunchasining mazmun mohiyatini ohib berar ekan, inson shaxsini “asosiy fanlar” bo‘yicha bilimlarga va ular bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikmalarga ega, shuningdek psixomotor funksiyalarni, kasbiy rollarni, kognitiv va affektiv faoliyatni, shaxslararo muomalani amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan malakalarga ega kishi sifatida tavsiflaydi [4].

Bugungi kunda “kompetentlilik” va “kompetensiya” terminlari pedagogika bilimlar sohasida, iqtisodiyotda, filologiyada, sosiologiya sohalarida qo‘llaniladi (L.N.Bolotov, V.S.Lednev, N.D.Nikandrov, M.V. Rijakov; yoki farqlanadi - A.A.Verbiskiy, I.A.Zimnyaya (Vostroknutov Ye.V., Razuvayev S.G. [5]).

A.V. Xutorskoyning (2003) “Asosiy kompetensiyalar shaxsga yo‘nalgan ta’limning komponentlari sifatida” (2003) maqolasida kompetensiya sompetentia shunday masalalarni o‘zida mo‘jassamlashtiradi, buning natijasi o‘laroq inson yaxshi ma’lumotga ega bo‘ladi, bilim va tajribani egallaydi. Kompetensiya shaxsning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan sifatlari to‘plami (bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar, faoliyat usullari) dan iborat bo‘lib, ular predmet va jarayonlarning ma’lum doirasiga nisbatan munosabatni shakllantiradi va shu munosabatlar bo‘yicha sifatli produktiv faoliyat uchun zarur”-degan fikrni ilgari suradi.

Kompetentlik (lot. Competens-mos keluvchi, mos tushuvchi, qobiliyatli, biluvchi) – inson tomonidan mos bo‘lgan kompetensiyaning egallanishi bo‘lib, u o‘zida kompetensiya va uning faoliyat predmetiga nisbatan shaxsiy munosabatni mujassamlashtiradi. Kompetentlilik faoliyat xarakteristikasi sifatida xodimning real kasbiy faoliyatida egallangan bilimlar, ko‘nikmalar, malakalarni hayotga tatbiq

qilishga nisbatan qobiliyati va tayyorgarligini belgilaydi. Kompetentlilik-bu shaxsning shakllangan sifati va berilgan sohada faoliyatning minimal tajribasidir [6].

Novikov A.M. (1996) “kompetentlilik” tushunchasini “professionalizm” alternativ tushunchasi sifatida talqin etadi. Professionalizm, muallifning fikriga ko‘ra, texnologik tayyorgarlikka aloqadordir, kompetentlik esa o‘zida “asosiy kvalifikatsiya” deb atalgan kompetensiyalardan tashkil topgan, professionalizmdan yuqori turadigan mazmunni mujassamlashtiradi. Bunga shaxsning quyidagi sifatlari kiradi: xatti-harakatlarning mustaqilligi, har qanday ishga ijodiy yondashuv, bilimlarni doimiy yangilashga tayyorlik, aqlning egiluvchanligi, tizimli va iqtisodiy tafakkurga tayyorlik, dialog olib borish ko‘nikmasi, jamoada o‘zaro hamkorlik, hamkasabalar bilan muomalada bo‘lish [7].

Fishman L.I. ta’kidlashicha, kompetentlikning turli xil ta’riflari orasida odatda quyidagi holat tushuniladi: kompetentlilik shaxsning murakkab integrallashgan sifati bo‘lib, ayrim kasbiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Bu yerda alohida bilimlar yoki ko‘nikmalar haqida gap ketayotgani yo‘q, balki gap insonga yaxlit faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini beradigan xususiyat haqida ketayapti.

E.F. Zeyer: “kompetentlilik shaxsning integrativ sifati bo‘lib, kasbiy faoliyatning ma’lum turini amalga oshirish uchun yetarli bo‘ladigan zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini o‘zida mo‘jassamlashtiradi”, -degan g‘oyani ilgari suradi [8].

Tutolmin A.V. kompetentlikni ma’lum konkret vazifalarning muvaffaqiyatli ijrosini ta’minlab beradigan o‘zaro aloqador va o‘zaro bir-birini ta’minlaydigan bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarning guruhini tushunadi. Kasbiy kompetensiya – bu mutaxassis ishning talablariga amal qilgan holda va maqsadga yo‘nalgan holda vazifalar va muammolarni metodik tashkillashtirishga va mustaqil hal etishga, shuningdek o‘z faoliyati natijalarini mustaqil baholashga nisbatan tayyorgarligi va qobiliyatidir. Kompetentlilik-bu “ishning ko‘zini bilish” deb atalgan o‘zlashtirilgan kompetensiyalar doirasida kasbiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyati, ya’ni mas’ul qarorlarni qabul qilish va mazkur vaziyat talablariga mos holda harakat qilishdir [9].

Belya R.S. (2013) ning fikriga ko‘ra, ta’lim taraqqiyotining hozirgi bosqichi kompetentli yondashuv bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, mohiyatan ta’limdagи nazariy bilimlar bilan kasbiy-amaliy faoliyatning real mavjud ehtiyojlari o‘rtasida muvozanatni o‘rnatishga nisbatan harakatdir. “Kompetentli yondashuv” kategoriyasini quyidagicha interpretatsiya qilish mumkin: bu ta’lim maqsadlarini ta’riflash, ta’lim mazmunini tanlash, ta’lim jarayonini tashkil etish va ta’lim natijalarini baholashning umumiy prinsiplari to‘plami [10].

Galustyan O.V. (2020) ham xuddi shunday fikrda: kompetentli yondashuv ta’lim jarayonining qaytadan yo‘naltirilishini ta’minlab beradi. Bunda bilimlar va

shakllangan ko'nikma va malakalarni boy axborot-kommunikatsiya maydoni bo'lgan bozor iqtisodi sharoitlarida bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatga nisbatan salohiyati va qobiliyatini rivojlantiradigan kompetensiyalar kompleksini egallash uchun sharoitlar yaratishga ko'chiriladi [11].

Selevko G.K. (2004) kompetensiyani oldinga qo'yilgan vazifalarni uddalashga nisbatan bitiruvchining tayyorligini o'zida ifodalaydigan ta'lim natijasi; va atrof-muhitni o'zgartirish bo'yicha maqsadlarni qo'yish va ularga erishish imkoniyatini beradigan bilimlar, ko'nikmalar va malakalar to'plami; shaxsning ta'lim olish va sosializatsiya jarayonida o'zlashtirilgan hamda faoliyatda mustaqil va muvaffaqiyatli ishtirok etishga yo'naltirilgan bilimlar va tajribaga asoslangan faoliyatga nisbatan umumiy qobiliyat va tayyorgarlikda yuzaga chiqadigan integral xususiyati sifatida qaraydi. Shu bilan birga, muallifning fikricha, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, ko'nikma va malaka tushunchalaridan ancha keng, chunki ular shaxsning yo'nalgaligi, stereotiplarni yengib o'tish qobiliyatni, muammoni his etish, uzoqni ko'ra bilish, tafakkurning moslashuvchanligi, xarakterni o'z ichiga oladi [12].

"Kompetensiya", "kompetentlik", "kompetentli yondashuv" kategoriyalari paydo bo'lishining batafsil tahlili shuni ko'rsatadiki, biz fanda ularning paydo bo'lishidan tortib to turli xil kasbiy, ta'limiy, ishlab chiqarish va ilmiy muhitlarda hayotga tatbiq qilish va foydalanishgacha bo'lgan davrda tasavvurlar dinamikasini I.A.Zimney, A.V.Tutolmina, S.M.Kolomiysalarning ishlarida kuzatamiz.

## NATIJALAR

Shunday qilib, Zimnyaya I.A. (2004) ta'limda kompetentli yondashuvning paydo bo'lishi va foydalanishining qator bosqichlarini ajratib ko'rsatadi (kompetentlik tushunchasini ko'rib chiqishga nisbatan yondashuvning o'zgarishlariga bog'liq holda):

Birinchi bosqich (1960-1970 y.) "kompetensiya" kategoriyasining ilmiy apparatga kiritilishi, kompetensiya, kompetentlilik tushunchalarining farqlanishi asoslarini yaratilishi bilan xarakterlanadi. Shu vaqtadan boshlab D.Xayms tomonidan kiritilgan "kommunikativ kompetentlik" tushunchasining lisoniy kompetentlik turli xil turlarining tadqiq qilinishi boshlandi. Ikkinci bosqich (1970-1990 y.) – kompetensiya, kompetentlik kategoriyalari boshqaruvda, rahbarlikda, menejmentda, muomalaga o'qitishda professionalizm bilan xarakterlanadi.

Ilmiy kategoriya sifatida kompetentlik bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning uchinchi bosqichi 1990 yildan boshlanadi va quyidagi ishlarning yuzaga chiqishi bilan xarakterlanadi: Markova A.K. "O'qituvchi kasbiy kompetentligining psixologicheskiy tahlili" (1990) va Mitina L.M. "O'qituvchi kasbiy rivojlanishi psixologiyasi" (1995). Oxirgi ishda "pedagogik kompetentlik" tushunchasi ko'rib chiqilgan [13].

Zimnyaya I.A. (2004) “kompetentlik” tushunchasini ko‘rib chiqar ekan, unda ikkita modelni ajratib ko‘rsatadi – shaxs va faoliyat modellari, shuningdek kompetentliklarning uchta guruhini farqlaydi: 1) shaxs sifatida, hayotiy faoliyat sub’yekti sifatida o‘z o‘ziga nisbatan munosabat bo‘yicha kompetentliklar; 2) insonning o‘zga kishilar bilan o‘zaro ta’siriga nisbatan munosabat bo‘yicha kompetentliklar; 3) inson faoliyatining barcha shakllari va tiplarida yuzaga chiqadigan faoliyatga nisbatan munosabat bo‘yicha kompetentliklar.

### **MUHOKAMA**

Pedagog-tadqiqotchilar A.V.Kozlova, O.S.Mixno, Ye.V.Chmixova (2018) kompetensiya, kompetentlik tushunchalarining ta’riflarini uchta guruhga ajratadi: birinchi guruh kompetensiya, kompetentlik ta’rifida shaxs sifatlarini (indiviidumning asosiy sifati, qobiliyat, integratsiyalashgan xarakteristikalar, ijodiy malakalar va h.k.), ularning faol xarakteri ta’kidlandi (notanish vaziyatda bilim, ko‘nikma va malakalarning yuzaga chiqishiga ko‘maklashadi; turli xil kasbiy vaziyatlarda qo‘lga kiritilgan bilimlar qo‘llaniladi va h.k.); ta’riflarning ikkinchi guruhi kompetensiya-kompetentlikni ta’lim natijalarining kategoriysi sifatida ko‘p darajalilik, ko‘p komponentlilik g‘oyalardan kelib chiqqan holda baholashning mezon va uslublari sifatida ko‘rib chiqadi; ta’riflarning uchinchi guruhi o‘zgarishga, baholashga ustakovkaning mavjudligi bilan ikkinchisiga yaqin bo‘lib, kompetensiya kompetentlikni lavozim, kasbiy faoliyat talablarini belgilab beradigan bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar va munosabatlar, bilimlar yaxlitligining ochiq tizimi; shaxsning butun hayoti davomida shakllangan tajribasi; moslashish va samarali faoliyat uchun zarur bo‘lgan tarmoqlararo bilimlar, ko‘nikmalar va qobiliyatlar; kasbiy bilimlar, ko‘nikmalar va kasbdan tashqari bo‘lgan malakalar konglomerati sifatida tushunishni taklif etadi. Uchinchi guruh ta’riflarining farqi shundaki, ularda shaxsning ichki, sub’yektiv ibtidosi va muhit talablari integratsiyasiga harakat o‘z ifodasini

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy pedagogikada “kompetensiya”, “kompetentlik” tushunchalarining mohiyati, strukturasi va mazmunining yagona ilmiy-nazariy talqini ham, shuningdek ular orasida farq ham yo‘q. Bu narsa kompetentli yondashuvning ta’lim muassasalarida, pedagogik xodimlarni, shu jumladan maktab o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutlarida samarali amalga oshirilishini qiyinlashtiradi.

Kolomiyes S.M. (2010) ta’limda “kompetensiya, kompetentlik”, “kompepetentli yondashuv” kategoriyalarining paydo bo‘lishi masalalarini tahlil qilar ekan, uzoq davom etgan ta’lim natijalarini baholash “uchlik”dan kelib chiqqan: bilimlar-ko‘nikmalar-malakalardan iboratligini ta’kidlaydi. Adabiyotlar tahlili ko‘rsatadiki, kompetentlik tushunchasi kreativlik (kreativ kompetentlik), ijod (ijodiy kompetentlik) va ijodiy qobiliyatlar (imkoniyatlar) bilan uzviy aloqadadir.

Kreativlik nazariyasi ijodkorlaridan biri J.Gilford (1965): “kreativlik- ijodiy tafakkurga yordam beradigan shaxs xarakteristikalarining to‘plami” -deya ta’rif beradi; Olim fmikricha, “kreativlik turli xil aqliy operatsiyalar, ayniqsa divvergent tafakkurga tayanadi”[14].

Rojkova S.V. (2018) “kreativlik”ni quyidagicha xarakterlaydi. “Kreativ” tushunchasi ijodiy, yaratuvchilik ma’nolarini anglatadi, inglizcha so‘z bo‘lgan “creativity” tarjimada shaxsning nisbatan turg‘un xarakteristikasini tashkil etadigan ijodiy salohiyat darajasi, ijodga qobiliyat ma’nolarida keladi. Kreativlik (latinchedagi creatio so‘zidan olingan bo‘lib, yaratish degan ma’noni anglatadi) deganda individning yangi g‘oyalarni dunyoga keltirishga tayyorligi bilan xarakterlanadigan ijodiy qobiliyatlari tushuniladi. Kreativ kompetensiya quyidagi komponentlarni o‘zida mujassamlashtiradi: kreativ (ijodiy) sifatlar – ilhomlanganlik, fantaziya, aqlning egiluvchanligi, qarama-qarshiliklarga sezgirlik; fikrlar, his-tuyg‘ular va harakatlarning tarqaluvchanligi; proqnoz qilish; tanqidiylik; o‘z fikriga ega bo‘lish va h.k. Kreativ kompetensiya-bu ijodga nisbatan qobiliyatdir. Pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ijodiy yondashuv o‘qituvchi faoliyatining muhim ob’yektiv xarakteristikasidir [15].

N.A. Muslimov fikricha, pedagogik kreativ faoliyat bo‘lajak o‘qituvchi rivojlanishining bosh mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi, chunki kreativ pedagog doimiy holda quyidagi jarayonlar orqali o‘z kasbiy darajasini oshiradi: o‘zini o‘zi tashkil etish, ijodiy jihatdan o‘zini o‘zi realizatsiya qilish, kasbiy rivojlanish, faoliyatning yangi bilimlari, metodlari egallanadigan o‘ziga o‘zi ta’lim berish va boshqa ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, histuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Buning uchun ular E.P.Torrens tomonidan 1987 yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o‘tadi.

Bo‘lajak o‘qituvchini kreativ faoliyatga yo‘naltirishda quyidagi uchta sohani farqlash lozim: 1) metodik ijod (paydo bo‘ladigan pedagogik vaziyatlarni tahlil qila bilish ko‘nikmasi, metodik modellarni to‘g‘ri tanlash va qurish, o‘quv-tarbiyaviy jarayonda ta’sirning mazmuni va usullarini qura bilish, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish hamda ularni pedagog va bolalar jamoasining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda savodxonlarcha amaliyotda qo‘llash bilan bog‘liq).

2) kommunikativ ijod (bolalar bilan o‘zaro ta’sir) (mazkur ijod ham bolalar bilan, ham ularning ota-onalari bilan, ham hamkasabalar, ma’muriyat bilan pedagogik jihatdan maqsadga yo‘nalgan va samarali muloqotni tashkil qilish; o‘zini o‘zi reguliyasiya qilish qobiliyati bilan bog‘liq).

3) ijodiy o‘zini o‘zi tarbiyalash (konkret ijodiy individuallik sifatida o‘zini anglash, keljakda takomillashtirish va korrektirovkasi talab qilinadigan o‘z kasbiy-shaxsiy sifatlarini aniqlash, shuningdek uzliksiz o‘ziga o‘zi ta’lim berish tizimida shaxsiy o‘zini o‘zi takomillashtirishning uzoq muddatli dasturini ishlab chiqish).

O‘zini o‘zi shakllantirish va o‘zini o‘zi rivojlantirishga nisbatan qobiliyatni bo‘lgan pedagog atrof olamda o‘zgarishlarga va innovatsiyalarga yengil moslashadi, pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan yangi bilim va texnologiyalarni qo‘llay oladi [16].

Kreativ tafakkurga ega bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchilar:

- boshqa talabalarning xayoliga kelmagan g‘oyalarni bildiradi;
- o‘zlarini ifoda etishning o‘ziga xos uslubini tanlaydi;

- g‘oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko‘radi;
- muammoning yechimini topishda noan’anaviy yondashuvni tanlaydi.

N.Qurbanov (2021)ning fikricha, pedagogning kreativ salohiyati – bu ta’lim jarayonini tashkil etish, kasbiy hamkorlik bilan bog‘liq bo‘lgan turli xil masalalarning innovation yechimi uchun zarur bo‘lgan imkoniyatlar to‘plamidir. Pedagogning ijodiy salohiyati uchta komponentning integratsiyasida o‘z ifodasini topadi va shaxsga taalluqli bo‘lgan dinamik strukturaga ega bo‘ladi:

a) pedagogga xos bo‘lgan qadriyatli-ijodiy tasavvurlar va afzalliklarni o‘zida aks ettiradigan qadriyatli komponent;

b) pedagog tomonidan uning mehnatining ijodiy xarakterga ega ekanligini tushunishiga yordam beradigan va kasbiy faoliyatini ijodiy tashkil qilishiga ta’sir ko‘rsatadigan bilimlar to‘plami hisoblangan kognitiv komponent;

v) ijodiy salohiyatni pedagogning kelgusida rivojlanishi uchun imkoniyatlar yashiringan aktualizatsiya holatiga (pedagogning o‘zini kasbiy-shaxsiy realizatsiya qilishi) ko‘chirishga yordam beruvchi elementlarni o‘zida jamlagan faoliyat komponenti.

## XULOSA

Shunday qilib, yuqorida ko‘rib chiqilgan tushuncha va terminlar, bizning fikrimizcha, yaxlit holda bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ kompetentligining mazmuni, strukturasi va o‘ziga xosligini, shuningdek texnologik yondashuv asosida uning diagnostikasi va rivojlanishini belgilab beradigan birlamchi (asosiy) tushunchali-terminologik tizimini tashkil etadi.

Kreativlik tushunchasi turli xil ta’riflarga ega. Ular bir-biridan farq qiladi, biroq ularda ayrim o‘xshash elementlar ko‘zga tashlanadi, masalan, quyidagilar: o‘qituvchining odatdagi va noan’anaviy vaziyatlardagi faoliyatining muvaffaqiyatini ta’minlab beradigan integrativ kasbiy-shaxsiy xarakteristikasi (Tutolmin A.V., 2009);

o‘qituvchining innovasionlilik, mobillik, kreativlik singari sifat xarakteristikalarini o‘zida jamlagan bo‘lajak o‘qituvchining integrallashgan kasbiy-shaxsiy xarakteristikasi (Morxova I.V., 2015); kasbiy ijodiy faoliyatni amalga oshirishga nisbatan pedagogning tayyorgarligini ta’minlab beradigan, maxsus bilim, ko‘nikma va motivlarning tizimini hamda kasbiy jihatdan muhim bo‘lgan sifatlar to‘plamini o‘zida mujassamlashtiradigan shaxsning integrativ sifati (Paxtusova N.A., 2015 noan’anaviy vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatini, ta’lim olayotganning bilimlari va tajribasiga tayangan ijodiy faoliyatga nisbatan qibiliyati va tayyorgarligini aks ettiradi (Плещуев В. В., Рассамагина Ф. А., 2016).

O‘qituvchining zarur bo‘lgan kasbiy kompetentligi fenomeni asosida yotgan tushunchalar tizimiga quyidagi tushunchalar kiradi: “ijod”, “kreativlik”, “ijodiy faoliyat”, “ijodiy qobiliyatlar”, “kreativ salohiyat”, “kompetentlik”, “kompetensiya”, “kompetent yondashuv”. Kompetentli yondashuv – bu ta’lim maqsadlarini aniqlash, ta’lim mazmunini tanlash, ta’lim jarayonini tashkil etish va ta’lim natijalarini baholashning umummiy prinsiplari to‘plamidir. Mazkur yondashuv bozor iqtisodi sharoitlarida kasbiy faoliyatga nisbatan bo‘lajak mutaxassisning salohiyati va qibiliyatlarini rivojlantirishini belgilaydigan kompetensiyalar kompleksini egallah uchun shart-sharoitlar yaratishga ta’lim jarayonini yo‘naltirishni ta’minkaydi.

Tahlillardan kelib chiqib, mualliflik pozisiyasida kreativ komptensiya atamasiga quyidagicha ta’rif berildi:

O‘qituvchi ijodiy faoliyatining uchta sferasi farqlanadi:

- metodik ijod – (paydo bo‘ladigan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, metodik modellarni to‘g‘ri tanlash va qurish, o‘quv-tarbiyaviy jarayonda ta’sir qilishning mazmunini va usullarini konstuksiya qilish);

- kommunikativ ijod (bolalar, ota-onalar, hamkasabalar, ma’muriyat bilan pedagogik maqsadga yo‘nalgan va samarali muomalani tashkil etish, samarali kommunikatsiyani va o‘zini o‘zi regulyasiya qilishni amalga oshirish qibiliyati bilan bog‘liq);

- ijodiy o‘zini o‘zi tarbiyalash (o‘zini konkret ijodiy individuallik sifatida anglash, kelajakda takomillashish va korrektirovkani talab etadigan o‘z kasbiy-shaxsiy sifatlarini aniqlash, shuningdek shaxsiy o‘zini o‘zi tarbiyalash va o‘zini o‘zi takomillashtirish dasturini ishlab chiqish).

Kreativ kompetentlik shaxsning ko‘p omilli xususiyati, insonning ijodiy qibiliyatini rivojlantirishni ta’minlaydigan va ko‘plab original, nostandard va foydali g‘oyalilar hamda mahsulotlarni umumlashtirish imkoniyatini beradigan, shuningdek hayotiy va kasbiy vaziyatlarda insonning ijodiy harakat qilishga nisbatan tayyor

shaxsning intellektual, emosional, axloqiy, irodaviy, shaxsiy sifatlari, bilimlari, ko'nikmalari, malakalari va tajribasi tizimi sifatida belgilanadi.

Shunay qilib, kreativ kompetensiya o'zida quyidagi kompetentlarni mo'jassamlashtiradi: kreativ (ijodiy) sifatlar – ilhomlanganlik, fantaziya, aqlning egiluvchanligi, qarama-qarshiliklarga sezgirlik; fikrlar, his-tuyg'ular, harakatlardan ozodligi; tanqidiylik; prognoz qilishlik; o'z fikriga egalik. Tadqiqot uchun asosiylar, murakkab va muhim jihatlaridan biri bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetentligini aniqlash va amaliyatda kreativlikni rivojlantirish muhim ijtimoiy-pedagogik masalalar sirasiga kiradi.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika. - Toshkent: fan va axborot texnologiyalari, 2010-yil. 278 b.
2. Abdullayeva Sh. A. Hokimlik pedagogikasi. - Toshkent: fan va axborot texnologiyalari, 2017. 178 b.
3. Andreyev A. Использование аутентичных материалов для изучения ономатопеи на начальном этапе обучения корейскому языку студентов вуза //корееведение в россии: направление и развитие. – 2022. – т. 3. – №. 4. – с. 61-66.
4. Анохина Н.К. Педагогика.-М.: Университет, 2019. -232c.
5. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии.-М.Академкнига, 2010.-246с.
6. Djuraev R.X. Talimda interfaol texnologiyalari. -Toshkent, 2010. –76 b.
7. Djo'rayev R. X., Turgunov S. T. talim menejmenti. - Toshkent: Voris-Nashriyot, 2012 Yil. 167 b.
8. Grishina E.A. варианты, используемые в непринужденной речи // Инструментарий русистики: корпусные подходы. Slavica Helsingiensia 34 Helsinki, 2008 P. 63–91.
9. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. -T.: Me'ros, 2011.-144 b.
10. Kichuk N.V. Творчество как мировой бренд современного образования / Н. Кичук // Теория и практика эстетического воспитания в учебных заведениях: материалы Всеукраинской научно-практической конференции (21 мая 2021 год, г. Кропивницкий) / под ред. А. С. Радул. - Кропивницкий, 2021- 275с.

11. Mirsoliyeva M. Oliy talim sharoiti raxbar va ustozlari kasbiy kompetentligi sifat darajasini belgilash masalalari. // “Talim, fan va innovatsiya” jurnallari, 2017, 4-dol.
12. Ruzmetova S.T. Talabalar bilimi transformasiyasida raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari // “Boshlang‘ich talimga xalqaro baholash dasturlarini joriy etishning istiqbollari”. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Toshkent, 15- aprel, 2021-yil. 186 bet.
13. Zimnyaya I.A. Педагогическая психология: учебник для студентов высших учебных заведений, обучающихся по педагогическим и психологическим направлениям и специальностям. Изд.е 2-е. Москва: Логос, 2009г. С.382.
14. G‘oziyev E.E. Psixologiya (yoshlar psixologiyasi). Pedagogika institutlari va oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. Т.: O‘qituvchi, 1994 yil 224 b.
15. Alkarova F.N. Talabalarning amaliy kuchini faollashtirish vaziyatlarini yaratish tizimi. (“Texnologiyasi” talimi misoli). 13.00.01.-Nazariyalar pedagogikasi. Pedagog talimotlar tarixi. Pedagogika fanlari bo‘yich falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 2010. 15-16 b.
16. Aripdjanova A. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish. – Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. – Т.: 2017 yil. Адизов Б.Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари: Автореф. дисс... пед. фан. док. – Бухоро, 2003. – 44 б.